

## RIVOYAVIY SHE'RIYAT VA UNING BADIY TAKOMILI

Dinora Jumaniyazova,

*Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

[jumaniyozovadinora83@gmail.com](mailto:jumaniyozovadinora83@gmail.com)

**Rezyume.** Mazkur o'zbek adabiyotida rivoyaviy she'riyat va uning poetikasi muammosi ilmiy-nazariy tahlil qilinadi. Ayni masala she'riyatda folklorizmning vujudga kelishi hamda adabiy tur va janrlararo stilizatsiya hamda modifikatsiya hodisasi sifatida aniq misollar orqali tahlillar orqali umumlashtiriladi.

**Kalit so'zlar:** rivoyat, folklor, she'riy shakl, stilizatsiya, modifikatsiya, badiiy uslub.

**Резюме.** В данной статье представлен научно-теоретический анализ проблемы повествовательной поэзии и её поэтики в узбекской литературе. Проблема рассматривается на основе анализа конкретных примеров возникновения фольклора в поэзии, а также феномена стилизации и модификации литературных типов и жанров.

**Ключевые слова:** повествование, фольклор, поэтическая форма, стилизация, модификация, художественный стиль.

**Summary.** This article presents a scientific and theoretical analysis of narrative poetry and its poetics in Uzbek literature. The problem is examined through specific examples of the emergence of folklore in poetry, as well as the phenomenon of stylization and modification of literary types and genres.

**Key words:** narrative, folklore, poetic form, stylization, modification, artistic style.

**Kirish va dolzarbligi.** Jahonda ilm-fan, madaniyat va san'at, jamiyat, inson tafakkuri taraqqiyot etar ekan, u ma'lum bir ehtiyojlar hamda ijtimoiy-falsafiy asoslarga ega bo'ladi. Shu ma'noda, badiiy asar – garchi u bir qancha yillar oldin yaratilgan asarlar bo'lsa ham qayta tahlil qilishga, muayan zamon va davrga xos fazilat-u illatlar mohiyatini anglashga xizmat qiladi.

O'zbek mumtoz va zamonaviy she'riyati o'zining ko'p yillik tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega bo'lib, u tarixiy taraqqiyot davomida turli shakllanish va yangilanishlar vujudga keldi. Shu jarayon ichra zamonaviy adabiyotshunoslikda turli adabiy tur va janrlar orasida o'zaro sinkretik aloqalar sodir bo'ldi. Xususan, nasriy asarlarda lirikaga xos unsurlar uchraydi, bu o'z navbatida mavjud voqelikni, qahramonlar taqdirini ta'sirchan ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, she'riyatda lirik qahramon yoki uning ruhiy holatini anglatishda dramatik unsurlardan foydalaniladi. Shunday ekan, she'riy asarlarda ham ba'zi hollarda shoir – nasriy asardagi kabi roviy vazifasini bajarish holatlari anglashiladi.

**Metodlar va o'rganilish darajasi.** O'zbek folklorshunosligida rivoyat janri tarixiy takomili keng o'rganilgan bo'lib bir qator yirik monografik tadqiqotlar yaratilgan. Bundan tashqari, folklor va badiiy adabiyotning o'zaro sintezi, badiiy asarlarda folklorizm muammosi bo'yicha ham dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar yaratilgan. Ularda adabiy tur va janrlararo munosabat, modifikatsiya hodisasi kabi masalalar ilmiy umumlashtiriladi. Bildirilgan nazariy qarash va kelingan xulosalarda, L.Sharipova "Folklor materiali ma'lum

ijodkor tafakkuri bilan qorishib, badiiy asar tarkibidagi unsurga aylangandagina folklorizm tug‘iladi” [6, C.73] – deya ta’kidlaydi.

Tadqiqotchilar X.Fayzullaeva va X.Tojievlar sonetlar tadqiqi yuzasidan B.Boyqobilov dostonlarida hissiy holat tasviri uchun xizmat qiladigan sonetdek mustaqil janr namunalaridan doston yaratish tajribasi kuzatiladi. Aslida doston (lirik poema) o‘zining janriy xususiyatlariga ko‘ra she’riy rivoyaviy asar bo‘lishi kerakligini e’tirof etadi [5, C.33]. Z.Eshanova izlanishlarida esa “Voqeaband she’r rivoyat sujetidagi voqelik tasviri asosda shakllantirilib, she’rdagi lirik sujet va rivoyat sujeti qorishib, ajralmas holga kelgan badiiy butunlikni hosil qilgan. Bunda ham she’rning lirik kirish vazifasini bajaruvchi kirish bandi xalq rivoyatlariga xos “qadimda...” deb boshlanuvchi kirish konstruksiya bilan boshlanadi va lirik sujet rivoyat sujeti asosida hamda shu sujet ta’sirida yuzaga kelgan kechinma tasviri asosida rivojlantiriladi. She’rning xulosa vazifasini bajaruvchi so‘nggi bandida rivoyatlarga xos ma’rifiy g‘oya va muallif xulosasi beriladi” [1, C.210] deya munosabat bildiradi. Kuzatishlardan ma’lum bo‘ladiki rivoyat janri ham she’riyat bilan sintezlashgan holda o‘zining nazmiy ifodasini topadi.

**Tadqiqot natijalari.** Har qanday badiiy asar, jumladan, she’r shakl va mazmun birligidan tashkil topar ekan, bunda shaklning, ya’ni tashqi lisoniy libosning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. She’r tinglanganda, ayniqsa, o‘qilganda lisoniy libos yaqqol ko‘zga tashlanadi hamda shunga qarab biz she’rning qanday janr va poetik shaklda yozilganini bilamiz. Negaki, ma’lumki, poetik shakllar tarixiy hodisa sifatida vaqt-zamon o‘tishi bilan muayyan o‘zgarishlar, ma’lum takomillashuv jarayonini boshidan kechiradi. Adabiyotshunoslikda nazm haqida gap ketganda uni lirik kechinma hosilasi sifatida e’tirof etiladi va mavjud holat lirik qahramon orqali ifodalanishi asoslangan haqiqat. Shunday bo‘lsa-da, hamma butun olam qonuniyatlari, inson tafakkuri taraqqiyoti hamda janrlar modifikatsiyasi jarayonida adabiy tur va janrlar shakllanishi sodir bo‘lishi ham o‘z isbotini topgan masalalardandir. Adabiyotshunos olim D.Quronov ta’biri bilan aytganda, “Adabiy asarga xos bittagina, biroq nazdimizda eng muhim jihatdan turtki olamiz. U ham bo‘lsa adabiy asarning, eng avval, nutq hodisasi ekanligi. Zero, adabiy asarning yaratuvchisi – nutq ifoda etayotgan odam, yozmoq – tasavvurdagi (implitsit) o‘quvchiga gapirmoq va aytganlarini so‘zma-so‘z yozuvda aks ettirib bormoq demakdir. Shunga mos holda adabiy asarning o‘quvchisi – tinglayotgan odam, negaki, o‘qimoq ham asli yozuvda manguga muhrlangan nutqni qayta jonlantirish va shu asnodan tasavvurdagi (implitsit) yozuvchini tinglamoq demakdir” [7, C.3]. Shunday ekan, xalqimiz tarixi, xalq og‘zaki ijodi, umuman badiiy so‘z san’ati ma’naviy merosi bo‘lib kelayotgan turli janrlar, xususan, rivoyatlarning nazmiy ifodasi janr ifodasining yangi shakllarini vujudga keltirgan holda ijodkor – matn – o‘quvchi orasida muloqotni vujudga keltiradi.

**Muhokama.** “She’riyatga muhabbat – jamiyat doirasidagi xilma-xil munosabatlardan ozgina vaqt bosh olib ketish istagimizning eng go‘zal ko‘rinishlaridan biri. Ko‘ngli bezovta zot daryo bo‘yiga borib, sokin oqayotgan suvga uzoq tikilib o‘tirsan

ko'ngli tinchlanar ekan. She'riyat ham notinch inson uchun ma'naviy bir daryodir... She'riyatda inson yuragining sir-asrori aks etadi. Inson yuragining sirli tomoni shundaki, u dunyoga avval boshdanoq zabt etilgan holda keladi. Yurak – g'oyibdan kelib ichimizga o'rnashgan elchi. U, alaloqibat, o'sha g'oyibning irodasiga bo'ysunadi. She'riyat esa ichimizdagi elchilarning xos suhbatidir” [4, C.487] – deb yozadi, adabiyotshunos Rahimjon Rahmat.

Ma'lumki, zamonaviy adabiyotda folklorizm hodisa sifatida rivoyat va she'riyatning o'zaro sintezini uchratish mumkin. Mazkur jarayonning tarixiy takamoli ko'p yillar oldin boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero manbalarda qayd etiladiki, shoir Xilvatiydan (1858-1922) “bizgacha o'z qo'li bilan yozgan ikkita (dastxat) qo'lyozma devon yetib kelgan. Birinchi devoniga o'zbek tilidagi 6886 bayt va fors tilidagi 53 ta she'r – 770 bayt jamlangan. Ikkinchi devoniga esa o'zbek va fors tilidagi jami 4540 bayt she'r kiritilgan. Xilvatiy asarlarining aksariyat qismini ishq-muhabbat mavzusidagi she'rlar tashkil qiladi. Uning ijodida saruguzasht mavzusidagi she'rlar ham alohida o'rin egallaydi. Hayotlik chog'ida uning Mavludi sharif turkiy”, “Sayrul-jibol min sayrir-rijol” (Erkaklarning tog' sayri) “Charog'i maktab” nomli uchta asari chop etilgan. Bu asarlar xalq orasida mashhurdir” [3, C.8].

Xilvatiy ijodining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, shoir o'zining ustozlari Inoyatxon Langariy tavsiyasiga ko'ra turkiy tilda “Mavludi sharif” asarini yozadi. Asar turli davrlarda bir necha marotaba nashr etiladi. Eng avvalo, 1908, 1911, 1912, 1916-yillarda G'ulom Hasan Orifxon bosmaxonasida; 2000-yilda A.Qurbonov va I.Abdullaevlar hammuallifligida tuzatilgan matni asosida “Namangan” nashriyotida, 2013-yilda esa “Mavaraunnahr” nashriyotida; 2024-yili Toshkentda M.Ismoilxon o'g'li, M.Ismoilov, A.Akbarovlar tomonidan nashrga tayyorlanib “Irfonnashr” nashriyoti orqali o'quvchilarga taqdim etildi. Mazkur “Mavludi sharif” asari o'zbek mumtoz adabiyotida Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (sollallohu alayhi va sallam) mavludlari haqida yozilgan birinchi she'riy rivoyat” [3, C.9]. sifatida e'tirof etiladi.

Xususan, kitobda bir shunday bir hikoyatning nasriy bayoni berilgan. Unda aytilishicha, pok, halol bo'lgan bir yigit kecha-kunduz Allohni zikr etib, ibodatda qoyim edi. Uning ko'hna dunyo kabi bir keksa kampir qo'shnisi bo'ladi. Kampir shomu saxar Haq yo'lida ibodat qilib, dunyodan o'tadi. Kampirning bir qimmatbaho uzugi va aqlli o'g'li bor edi. Hikoyat shu yigit taqdiri hamda aynan “Mavludi Nabiy”ni o'qish orqali saodatga erishganligi haqidagi voqealar bayon etiladi. Xilvatiy bu hikoyatni “Yana bir shohidi hikoyat bayon g'ozasi birla oro topmog'i” mavzusida nazmiy rivoya qiladi.

Boz bir yaxshi hikoyat aylayin,  
Qissai shirin rivoyat aylayin.

Bir azize bor edikim, pokboz,  
Kechalar aytar edi Allohga roz.

Dedikim: bor erdi bir hamsoya zan,  
Charxi zolidek edi zoli kuhan [3, C.38].

Ko‘rinadiki, nasriy hikoyatu rivoyatlar nazmga ko‘chgach, u mazmun saqlangan holda yangicha ruh barpo etadi. Negaki, rivoyatning she‘riy shakli o‘zining nazmiy mezon va qoidalarga muvofiq muayyan, ritm hamda strukturaga egaligi bilan o‘quvchida o‘ziga xos estetik zavq bag‘ishlaydi. Zero, “Adabiy asarda badiiy ma’no yolg‘iz undagi so‘z va gap mazmunidan tug‘ilmaydi. Asarda nima aytilishi va nima tasvirlanishi ushbu nima qanday taxlit va shakl-shamoyilda aytilishi va tasvirlanishi muhim. Bu ikki holat – nima va qanday o‘zaro jips bog‘liq hodisalardir. Ma’no mazmunning qanday va qay ko‘rinishda ifodalanishi badiiy asar strukturasi hosil qiladi. Hosil bo‘lgan struktura esa, o‘z navbatida yangi ma’no o‘ramlari va qatlamlarini ishlab chiqara boshlaydi. Struktura she‘riy asarda nasrdagidan ko‘ra aniqroq va ko‘rimliroqdir, chunki misra, bayt va bandlar tayyor strukturaviy birlik, uzv vazifasini o‘taydi. Ular orasida kehadigan aloqa va munosabatlar badiiy asarning badiiy ma’no va badiiy konsepsiyasini vujudga keltiradi” [2, C.97].

Butun umr pokdomon yashagan yigit bir kun tushida mashgargohni va u joyda barcha gado va shohni ko‘radi. Shunda qiyomat boshlanib barcha oshkor va pinhona sirlar ochilib kimdir jannatga, kimdir do‘zaxga qarab borardi. Shunda yigitning ko‘zi ta‘rifiga til o‘jiz bo‘lgan go‘zal bir qasr tushadi. Bu men uchun bo‘lsa kerak deb shu qasr darvozasiga qarab yurganda bir farishta kelib “”Qayga borasan”? Bu qasr “Mavludi Nabiy”ni o‘qib eshitganlar uchun – deya yigitni qasrga kirgani qo‘ymaydi.

Yigit shu payt uyg‘onib ketib g‘amgin tortadi. So‘ng onasidan meros qolgan uzukni sotib uyiga mehmonlar chaqiradi. “Mavludi Nabiy”ni o‘qitib Sarvari olamga salovatlar aytadi. Ayni shu holat Xilvatiyning nazmiy bayonida shunday ifodalaniladi:

Ul zamon bo‘lmish qiyomat oshkor,  
Oshkor o‘lmish nihonu kuru bor.

Barcha o‘z holi birla ovoradur,  
Ba‘zi jannat, ba‘zi do‘zax boradur [3, C.40].

Bu holat kishini teran o‘yga toldiradigan, o‘z hayot falsafasidan ma’no izlaydigan tuyg‘ular taqdim etadi. She‘rda badiiy tasvir mohiyati hayotiy aqida urg‘usi, sodda va ravon rivoya yo‘sini bilan ajralib turgan holda mavjud tafsilotdan hukm-xulosa chiqarishga yetaklaydi. Inson umrida hamma narsaga o‘z kuchi, iqtidori, hayotiy a‘moli bilan erishmog‘i kerak. Uning iltijosi, istak va ilinjining o‘zigina kifoya qilmaydi. Shu ma’noda tasvirda tuyg‘u hamda ichki munosabat badiiy nutq yig‘iqligini tavsiflaydi. Anglaymizki, inson a‘molini uning amali tayin etadi. O‘z-o‘zini taftish qilib yashagan inson tilagi esa o‘z pok nomiga dog‘ tushirmaslikdan iborat. Lekin taassufki, shunday pok yashagan yigit ham qasrga qo‘yilmasligi sababi lirik ohangda shunday yangraydi:

Bir farishta keldi-yu to'sdi yo'lin,  
"Qayda borg'aysan?" – deyub tutdi qo'lin.

Qo'ymadi kirgoli qasr ichra ani,  
Dedi: "Mavlud" elig'a bergon muni.

Kimki "Mavlud"i Shafe'ul-muznibiyn  
Vird etar, ko'rgay bu qasr ichra yerin" [3, C.41].

Ushbu adabiy matnda ichki poetik ruh va hikmatga to'la hayotiy mantiq uyg'unlashadi. Didaktik qatlam teranlashuvi ma'no-mohiyatida to'liq dalolatlanadi. Zero, so'z san'ati real voqelikni poetik o'zlashtirishda idrok va dunyoqarash nisbatiga tayanadi. Binobarin, obraz va ifoda kesimida qayta tiklangan badiiy shartlilikda mohiyatni anglash darajasi tayanch markaz vazifasini o'taydi. Shoir so'z yordamida ikki amal: g'oyani shakllantirish va tasvirni chizish ijrosini ta'minlashga intiladi. Ifoda imkoniyatlarini yanada kengaytirish hamda ijodiy tasavvurni yig'ish mohiyatan badiiy mahorat va hayotni estetik jihatdan idroklash malakasi takomiliga borib tutashadi. Tafakkur va dunyoqarash silsilasida qayta idroklanadigan tuyg'u o'ziga xosligini aynan iste'dod darajasi belgilaydi. Aslida ijod falsafasi tushunchani hissiy qabul qilish va ohangni ilg'ashni muddao qiladi. Usul xilma-xilligi hamda axborotni qabul qilish yo'sini tafovuti tasvir ruhiyati imkoniyatlarini izohlab keladi.

**Xulosa.** Badiiy asarda rivoya uslubi va texnikasi muhim ahamiyat kasb etadi. Nasriy asarlarda rivoya uslubi badiiy niyatni amalga oshirish vositasi sanaladi. Lirikada muallif va qahramon munosabatini qadriyaviy mezonlar belgilab bergan holda borliq va uning estetik ahamiyatini baholash hamda anglash kompleksini vujudga keltiradi. Mazkur holat birinchidan, badiiy nutqning amaliy-estetik ishlanganlik darajasini tafovutlaydi, shuningdek, rivoya texnikasining funksional ahamiyatini oshiradi. Bundan tashqari, muallif va qahramon pozitsiyasiga oydinlik kiritadi.

Kuzatiladiki, Xilvatiyning "Mavludi sharif" asari adabiy ahamiyatga ega bo'lib, ilk she'riy rivoyat (doston) sifatida o'zbek adabiyotida rivoyaviy she'riyat shakllanishi va badiiy takomillashuvida alohida e'tirofga loyiq. Unda berilgan turli hikoyatlar va rivoyatlarning nazmiy ifodasida asar mohiyatini anglashda hissiy ta'sirchanlikni ta'minlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Eshanova Z. Istiqlol davri o'zbek she'riyatida afsona va rivoyatlar sintezi / Shaxs ma'naviyatining shakllanishida til va adabiyotning roli. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Qo'qon, 2025.
2. Мелиев С. Глобал илмий-бадий талқин поэтикаси: Филол фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 97.
3. Мулла Йўлдош Тўрабой ўғли Хилватий. Мавлуду Шариф. – Тошкент: Irfonnashr, 2024.
4. Раҳимжон Раҳмат. Жаннат соғинчи // Ўзбек адабий танқиди тарихи анталогияси. – Тошкент: Турон-Иқбол, 2011.

5. Файзуллаева Х., Тожиев Х. Сонетлар тизимидан иборат дoston тажрибаси // Guliston davlat universiteti axborotnomasi, 2018.
6. Шарипова Л. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек шеърляти бадий таракқиетида фольклор: Филол. фан. д-ри. дисс... автореф. – Тошкент, 2019.
7. Куронов Д. Талкин имконлари. –Тошкент: Turon zamin ziyo, 2015.

